


## **YALPI HUDUDIY MAHSULOT**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 55 890,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 14,0 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,5 % ga yetdi.



### **Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YaHM		44 072,9	55 890,3	114,0

*shu jumladan:*

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 172,3	50 175,2	113,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3 900,6	5 715,1	115,2
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>40 172,3</b>	<b>50 175,2</b>	<b>113,9</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	17 505,8	21 589,9	114,5
	sanoat	13 812,6	16 664,2	113,8
	qurilish	3 693,2	4 925,7	117,1

		<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
<b>Xizmatlar</b>		22 666,5	28 585,3	113,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 838,5	7 515,8	111,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 475,6	5 710,4	118,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	12 352,4	15 359,1	112,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 20 579,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,1% ga yuqoridir.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari

**2020- yil**

**16 971,3**

**-0,8**

**2021- yil**

**20 579,7**

**9,1**



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'I 33,2 % ni, qurilish 9,8 % ni va xizmatlar sohasi 57,0 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,1	89,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	8,9	10,2
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>43,6</b>	<b>43,0</b>
	sanoat	34,4	33,2
	qurilish	9,2	9,8
	<b>Xizmatlar</b>	<b>56,4</b>	<b>57,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,5	15,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	11,1	11,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	30,8	30,6




**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 113,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,2 %), qurilishda – 117,1 % (9,8 %), xizmatlar sohasida – 113,5 % ni (57,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,0 % (15,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,8 % (11,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 112,8 % dan (30,6 %) iborat bo'ldi.




## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 4,3 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,4 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 7,0 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 1,3 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.




## 2021- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 113,9 % va xizmatlarda – 111,1 % qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 49,5 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 52,6 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.